

IQTISODIY SAVODXONLIK VA IQTISODIY TA'LIMNING TARBIYAVIY AHAMIYATI

Jizzax Davlat pedagogika instituti Maktab menejmenti
kafedrası katta o'qituvchisi Azamat Juraboyevich Usmanov

Annotatsya

Ushbu maqolada iqtisodiy savodxonlikning shaxs ma'naviyatidagi o'ziga xos o'rini va xususiyatlari to'g'risida mulohazalar yuritilgan. Shuningdek, iqtisodiy ta'limda ko'zda tutilgan muhim masalalardan biri alohida kishilar, oilalar, yuridik shaxslar, institutsional tuzilmalar, moliyaviy muassasalar va boshqa turli sub'ektlar faoliyati yagona makroiqtisodiy tizimni tashkil etishi, bu faoliyatni yanada rivojlantirish borasida esa jamiyat va davlat oldidagi javobgarliklari, ya'ni iqtisodiy mas'uliyatlarini tarbiyalashda ham yetakchi o'rin egallashi hususida mulohazalar bayon etilgan.

Kalit so'zlar; Iqtisodiy tafakkur, iqtisodiy mas'uliyat, iqtisodiy madaniyat, tejamkorlik, mehnat unumdorligi, mehnat intensivligi, biznes, iqtisodiy samaradorlik.

Iqtisodiy savodxonlik, iqtisodiy madaniyat shaxs ma'naviyatining muhim jihatidir. Chunki, iqtisodiyotga oid bilimlar xo'jalikni tashkil etish va samarali yuritishni, foyda olishga yo'naltirilgan bilimlarni o'rgatish bilan bir qatorda, kishilarni mehnatsevarlikka, tejamkorlikka, mulkka nisbatan ma'suliyat va javobgarlik hissini, o'zi va jamiyat uchun foydali bo'lgan innovatsion g'oyalarni hayotga tadbiq etishni, ish va vazifaga nisbatan ma'suliyat bilan yondashishni, kishilar bilan iqtisodiy – ijtimoiy munosabatga kirishishni, insof, diyonat, homiylik, himoya, ota – onaning farzand oldidagi, farzandning ota – ona oldidagi burchi va vazifalari, tadbirkorlik, savdo va boshqa iqtisodiy faoliyatlarni amalga oshirish qonun – qoidalari va meyorlarini, iqtisodiy – ijtimoiy hamkorlikda o'zaro

sharikchilik prinsplariga amal qilish kabi tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan bilim va ko'nikmalarni shakllantirishda muhim hisoblanadi.

Aytaylik birgina tejamkorlik ma'nosi nafaqat moddiy asosga ega buyum yoki pulni tejashga nisbatan, balki vaqtdan unumli foydalanish, mavjud imkoniyatlarni ijobiy faoliyatga safarbar etish, nomaqbul odat va amallardan, foydasiz, behuda sarf - xarajatlardan tiyilish, shuningdek ilmiy, aqliy salohiyatni insoniyat va jamiyat uchun foydali bo'lgan tadqiqot va loyihalar yechimiga qaratish kabi jihatlarni ifoda etadi.

Tejamkor bo'lish, mavjud resurslardan oqilona foydalanish evaziga biz iqtisodiy resurslardan nafaqat uzoq muddat foydalanamiz, balki atrof – muhitning, tabiatning asl holida saqlanishiga va ko'plab ekologik muammolarning oldi olinishiga sababchi bo'lamiz. Inson tabiatning ajralmas bo'lagi va albatta uning har bir qarori, hatti – harakati tabiat muvozanatiga ma'lum darajada ta'sir etadi. Bu ta'sir doirasining ijobiy, yoki salbiy natijalarni keltirib chiqarishi bizning faoliyatimizga uzviy bog'liqdir. Birgina misol, BMTning "Atrof-muhit muhofazasi" dasturi ma'lumotiga ko'ra, hozirda dunyodagi mavjud daryolarning yarmi jiddiy ifloslangan. Yer shari aholisining qariyb 40 foizi toza ichimlik suvi yetishmasligidan aziyat chekmoqda. Har yili toza ichimlik suvining tanqisligi tufayli 1,2 mln. kishi turli xil xastaliklarga duchor bo'ladi, 5 mln. kishi ifloslangan va sifatsiz suvdan iste'mol qilishga majbur. [5]

Bu muammolarning yechimi iqtisodiy tarbiya, iqtisodiy madaniyat va iqtisodiy tafakkurni rivojlantirish bilan bog'liq masaladir.

Iqtisodiy tafakkur – insonning iqtisodiy jihatdan voqea-hodisalarni tahlil qilishi, unga baho berish va qaror qabul qilish; kishidagi iqtisodiy ong, iqtisodiy qarashlar, iqtisodiy faoliyat, iqtisodiy bilim va tushunchalar, iqtisodiy xatti-harakat majmuidan iborat bo'lib, uning asosida iqtisodiy madaniyat paydo bo'ladi. Iqtisodiy ta'lim iqtisodiy tarbiyaning ahamiyatini yanada oshirib, uning natijasida iqtisodiy resurslardan oqilona foydalanishni, iqtisodiy qarorlar qabul qilishda foydani maqsad qilish bilan bir qatorda tejamkorlik, halollik, insof, diyonat,

mehnatdan zavqlanish, yangiliklarga intilish, himoya va homiylik tamoillariga amal qilish kabi fazilatlarini yuzaga chiqaradi. [2]

Qadimdan sharq xalqlarida farzand tarbiyasida iqtisodiy savodxonlikka, iqtisodiy madaniyatni shakllantirishga alohida e'tibor qaratgan. Nima uchun? Demak gap faqat moddiy ta'minotga, yoki daromadga ega bo'lishda emas. Chunki, kishining yashashi, orzu va maqsadlarga erishishi uchun za'ruriy moddiy ta'minotni halol, to'g'ri va foydali mehnat orqali qo'lga kiritish muhim hisoblangan. Natijada bu nafaqat o'sha insonning moddiy ta'minoti oshishiga, balki o'sha yurt, o'sha hududning iqtisodiy taraqqiyotiga ham sabab bo'ladi.

Iqtisodiy ta'limda ko'zda tutilgan muhim masalalardan biri alohida kishilar, oilalar, yuridik shaxslar, institutsional tuzilmalar, moliyaviy muassasalar va boshqa turli sub'ektlar faoliyati yagona makroiqtisodiy tizimni tashkil etishi, bu faoliyatni yanada rivojlantirish borasida esa jamiyat va davlat oldidagi javobgarliklari, ya'ni **iqtisodiy mas'uliyatlarini** tarbiyalashda ham yetakchi o'rin egallaydi. Masalan: soliqlar, boj to'lovlari, davlat budjeti, dotatsiya, ijtimoiy to'lovlar, sug'urta, kredit kabi iqtisodiy mexanizmlarning roli va ahamiyatini, uning mamlakat iqtisodiyoti uchun muhimligini tushunish kishilarning iqtisodiy madaniyati va iqtisodiy mas'uliyatini oshiradi.

Hech kimga sir emaski, bugungi kunda dunyo iqtisodiyotning salmoqli qismini noqonuniy, pinxona iqtisodiyot tashkil etadi. Bu ko'rsatkich ayrim davlatlarda 30 – 80 foizgacha ulushga ega. Shu o'rinda noqonuniy yoki pinxona iqtisodiyotning ma'nosiga nazariy jihatdan qisqacha to'xtaladigan bo'lsak.

Pinhona iqtisodiyot – bu tovar-moddiy boyliklar va xizmatlarning jamiyat tomonidan nazorat qilinmaydigan harakati, ya'ni davlat boshqaruv organlaridan yashirin holda alohida fuqarolar va ijtimoiy guruhlar o'rtasida amalga oshiriluvchi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlardir. Bu munosabatlar o'z ichiga iqtisodiy faoliyatning barcha hisobga olinmagan, tartibga solinmagan turlarini oladi. Pinhona iqtisodiyot tarkibiga qo'yidagilar kiradi:

Jinoyatga aloqador iqtisodiyot – rasmiy iqtisodiyot tarkibiga iqtisodiy jinoyatning kiritilishi (boyliklarning talon-taroj qilinishi; nazoratning har qanday

shaklidan yashiringan holdagi xufyona iqtisodiy faoliyat – narkobiznes, qimor o'yinlari, daromadlarni noiqtisodiy qayta taqsimlash shakli sifatidagi fuqarolarning shaxsiy mulkiga qarshi umumjinoiy harakatlar – bosqinchilik, shaxsiy mulkni zo'rlik bilan tortib olish, o'g'irlash, ta'magirlik);

Soxta iqtisodiyot – hisobga olish va hisobotlarning amaldagi tizimiga soxta natijalarni haqiqiy natija sifatida kirituvchi rasmiy iqtisodiyot (qo'shib yozishlar);

Norasmiy iqtisodiyot – tovar va xizmatlarning ayriboshlash va taqsimlash bo'yicha iqtisodiy sub'ektlar o'rtasidagi norasmiy o'zaro aloqalar tizimi bo'lib, u mazkur sub'ektlar o'rtasidagi shaxsiy munosabatlar va bevosita aloqalarga asoslanadi;

Yashirin ikkilamchi iqtisodiyot – yakka tartibdagi va kooperativ faoliyatning nazoratdan yashiringan, ya'ni qonun tomonidan taqiqlangan yoki belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tmagan turi. [6]

To'g'ri pinhona faoliyatlar natijasida kimdir qanchadir miqdorda moddiy nafga ega bo'lishi mumkindir, lekin nimaning hisobiga...?

Bu iqtisodiy taraqqiyotga sabab bo'luvchi faoliyat emas, hattoki, tadbirkorlik ham emas, shunchaki turli darajadagi noqonuniy hatti – harakatni ifoda etib ayrim kishilarning moddiy ehtiyojini qondirish, boylik orttirish yo'lidagi nolegal faoliyatidir. Bunday salbiy oqibatlarni bartaraf etishning eng samarali usuli yoshlarda iqtisodiy savodxonlikni oshirishdir.

Iqtisodiy ta'lim – tarbiya jarayonini nafaqat maktabda, ta'lim muassasasida, balki mahalla va oilaviy sharoitda ham keng tadbiiq etish maqsadga muvofiqdir. Yoshlikdan to'g'ri so'zlikka, halollikka, mehnat qilishga, birovning haqiga hiyonat qilmaslikka, muhtojlarga muruvvat ko'rsatishga odatlangan shaxs, nafaqat o'zi yoki oilasining farovonligi uchun, balki jamiyatimizning, mamlakatimizning taraqqiyoti uchun muhim bo'lgan foydali shaxsga aylanadi.

Bu jarayonda iqtisodiy ta'lim – tarbiyaning asosiy vazifalari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1. Bizga ma'lumki inson ehtiyojini qondiruvchi har qanday iqtisodiy resurslar cheklangan, bu esa mavjud imkoniyatlardan oqilona foydalanishni talab etadi.

Buning uchun yoshlarda alternativ iqtisodiy tanlov sharoitida eng samarali va maqbul qarorlar qabul qilish ko'nikmasini shakllantirish muhimdir;

2. Turli faoliyat, voqea va hodisalarga nisbatan iqtisodiy jihatdan baho bera olishi, iqtisodiy fikr yuritishi uchun iqtisodiy qonunlar va ularning amal qilish tamoillarini tushunib yetishi.

3. Mulkni ta'sarruf etish, mulkka nisbatan egalik hissi va mulkdan foydalanishda iqtisodiy madaniyatni tarbiyalash.

4. Shaxsning ijtimoiy – psixologik, hamda ahloqiy jihatlari, ya'ni: mehnatsevarlik, intizomlilik, tejamkorlik, ishbilarmonlik, tadbirkorlik tashkilotchilik, hisob-kitob olib borishga nisbatan ko'nikmasini shakllantirish.

5. Mamlakatimiz iqtisodiy salohiyati, iqtisodiyotning tarkibiy tuzilishi, shuningdek ma'lum hudud doirasida qanday iqtisodiy faoliyat turlarini amalga oshirish samarali hisoblanadi kabi savollarga, iqtisodiy omillarni tahlil qilish orqali javob topa olish ko'nikmasini shakllantirish.

6. Turli faoliyat va maqsadlarga qaratilgan iqtisodiy munosabatlarning, shartnoma va boshqa iqtisodiy hujjatlarning huquqiy asoslari bo'yicha nazariy bilim va amaliy ko'nikmani shakllantirish.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 15-iyun kuni Toshkentda bo'lib o'tgan "Ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, muqaddas dinimizning sofligini asrash – davr talabi" mavzuidagi anjumanda so'zlagan nutqi. -T: 2017 y.

2. F.T.Egamberdiev, M.O.Esonova, J.X.Xamraqulov, M.F. Egamberdiev. Iqtisodiy tafakkur «Adabiyot uchqunlari». -T: 2018 y.

3. Botirov Bakhtiyor Fayzullaevich, & Usmanov Azamat Juraboevich. (2020). MELON IN UZBEKISTAN - ECONOMIC EFFECTIVENESS OF INTRODUCTION OF "MELON, WATERMELON SYRUP", "WATERMELON HONEY", "MANGO" BEVERAGE FROM WATERMELONS. *INTERNATIONAL JOURNAL OF DISCOURSE ON INNOVATION, INTEGRATION AND EDUCATION*, 1(4), 136-138. Retrieved from <http://summusjournals.uz/index.php/ijdiie/article/view/325>

4. Usmanov, A. (2020). ЎЗБЕКИСТОН БЕТАКРОП ТУРИСТИК МАМЛАКАТ: ТАРИХИЙ ДАЛИЛЛАР, ИМКОНИЯТ ВА ИСТИҚБОЛ 27-32

- bet. *Архив Научных Публикаций JSPI*, 1(13), 1–143. извлечено от https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/3415
5. B. F. Botirov, J. Usmonov, & R. I. Ablyakimova. (2021). Organization Of Tourism Services In Uzbekistan Based On The Combination Of National Styles And Modern Innovations . *INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND CURRENT RESEARCH CONFERENCES*, 53–57. Retrieved from <https://usajournalshub.com/conferences/index.php/iscrc/article/view/66>
6. Usmonov, AJ (2021). Iqtisodiy ta'limning tarbiyaviy ahamiyati. *American Journal of Social Science and Education Innovations* , 3 (01), 105-109. <https://doi.org/10.37547/tajssei/Volume03Issue01-20>
7. 1. Ablyakimova, R. (2020). VIEW AND THEORIES ON FACTORS INFLUENCING MANAGEMENT DECISION-MAKING. *Архив Научных Публикаций JSPI*, 11(1). извлечено от https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/1052
8. Alimova, Q. (2021). ZAMONAVIY MENEJER FAOLIYATI. Журнал Педагогика и психологии в современном образовании, 1(1). извлечено от <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/920>
9. Alimova Kunduz Oybek qizi, & Toshboyeva Hulkar Mirzaboy qizi. (2021). ISSUES OF ETHICS AND ETHICS IN THE CHILDHOOD OF HAZRAT SHAIKH MUHAMMAD SADIQ MUHAMMAD YUSUF. *JournalNX - A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal*, 93–95. Retrieved from <https://repo.journalnx.com/index.php/nx/article/view/1227>
10. Alimova, Q. (2021). TA'LIM TIZIMIDA INNOVATSIYA JARAYONLARINI BOSHQARISH. *Jizzax innovatsion ta'limi* , 1 (1). <https://ruslit.jspi.uz/index.php/education/article/view/564>
11. Alimova, Q. (2021). УПРАВЛЕНИЕ ИННОВАЦИОННЫМИ ПРОЦЕССАМИ В СИСТЕМЕ ОБРАЗОВАНИЯ. *Джиззакское инновационное образование*, 1(1). извлечено от <https://education.jspi.uz/index.php/education/article/view/564>
12. Alimova, Q. (2020). Farzand tarbiyalashda ota-onalarning asosiy xatolari. Журнал Педагогика и психологии в современном образовании, 1(1). извлечено от <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/436>
13. Alimova Kunduz Oybek qizi, & Nazarov Toshpolat Boshbek ogli. (2020). WAYS TO ACHIEVE SUCCESS IN EDUCATION. *INTERNATIONAL JOURNAL OF DISCOURSE ON INNOVATION, INTEGRATION AND EDUCATION*, 1(4), 204-205. Retrieved from <http://summusjournals.com/index.php/ijdiie/article/view/343>
14. Majidov, J. (2020). ПРОФЕССИОНАЛ ФУТБОЛ ЖАМОАЛАРИДА “ТРЕНЕР–СПОРТЧИ” ТИЗИМИДАГИ МУНОСАБАТЛАРНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ. *Архив Научных Публикаций JSPI*.

15. Majidov, J., & Majidova, G. (2020). SHAXS IJTIMOIIY TARAQQIYOTIDA OILA MUHITINING O'RNI. *Архив Научных Публикаций JSPI*.
16. Majidov, J. (2020). PSYCHOLOGICAL CRITERIA OF THE LEADER PERSONALITY. *Архив Научных Публикаций JSPI*.
17. Majidov, J. (2020). Социальный интеллект как совокупность способностей, обеспечивающих адаптацию личности в обществе. *Архив Научных Публикаций JSPI*.
18. Majidov, J. (2021). СПОРТДАГИ МУЛОҚОТ ИЖТИМОИЙ ПСИХОЛОГИК ҲОДИСА СИФАТИДА. *Журнал Педагогика и психологии в современном образовании, 1(1)*. извлечено от <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/723>
19. Majidov, J. (2021). ФУТБОЛ ЖАМОАЛАРИДА ЎЗARO МУНОСАБАТЛАР КЕЧИШИНИНГ АЙРИМ ҲУСУСИЯТЛАРИ. *Журнал Педагогика и психологии в современном образовании, 1(1)*. извлечено от <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/724>